O‘ZBEK TILI FONOLOGIK TIZIMIDA SINGARMONIZM VA UNLILAR REDUKSIYASI

Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li
TerDPI katta o‘qituvchisi
Xolmuminova Charos Gulmuhammad qizi
TerDPI 1-kurs talabasi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada fonologik tizimdagi muhim hodisalardan biri bo‘lgan ziddiyat tushunchasi singarmonizm va unlilar reduksiyasi misolida kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda singarmonizmning tarixiy va zamonaviy holati, uning fonetik, fonologik hamda morfologik xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, unlilar reduksiyasi jarayonining akustik, artikulyatsion va urg‘u bilan bog‘liq jihatlari ilmiy asosda tahlil etiladi. Mazkur hodisalarning o‘zaro ziddiyatli va komplementar xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari o‘zbek tilining fonologik tizimini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Fonologiya, singarmonizm, unlilar reduksiyasi, fonologik ziddiyat, urg‘u, morfonologiya, turkiy tillar, tovush tizimi, affiks variantliligi, nutq jarayoni.

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda fonologik tizimning ichki qonuniyatlarini aniqlash va undagi qarama-qarshi jarayonlarning funksional xususiyatlarini tadqiq etish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sanaladi. Tilning fonologik qurilishi alohida tovush birliklari bilangina emas, balki ular o‘rtasidagi funksional munosabat va oppozitsiyalar orqali ham shakllanadi. Fonologik ziddiyat fonemalar yoki fonologik jarayonlarning o‘zaro qarama-qarshi, differensial belgilarga asoslangan munosabatini ifodalaydi. Shu nuqtayi nazardan, singarmonizm va unlilar

reduksiyasi hodisalari fonologik tizimning muhim komponentlari sifatida alohida ilmiy e'tiborni talab etadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, singarmonizm va reduksiya bir-biriga qarama-qarshi, ammo o'zaro bog'liq jarayonlar sifatida tilning rivojlanish mexanizmlarini ochib beradi. Singarmonizm fonetik yaxlitlik hamda artikulyatsion moslashuvni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'lsa, reduksiya hodisasi nutqning tejamkorlik tamoyiliga asoslangan dinamik o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, hozirgi o'zbek adabiy tilida singarmonizmning zaiflashuvi va reduksiya hodisasining faol kuzatilishi fonologik tizimda muvozanatning yangi ko'rinishlarini yuzaga keltirmoqda. Bu esa mazkur hodisalarni qiyosiy va tizimli tahlil qilish zaruratini kuchaytiradi.

Mavzuning yana bir muhim jihati shundaki, singarmonizm va unlilar reduksiyasi nafaqat fonetika va fonologiya, balki morfologiya hamda morfonologiya bilan ham bevosita bog'liqdir. Xususan, affikslarning variantliligi, urg'u tizimi, nutq uslublari o'rtasidagi farqlar aynan shu hodisalar orqali izohlanadi. Bu esa tadqiqotning ko'p qirrali va kompleks xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Avvalo, turkiy tillarda singarmonizm hodisasini tizimli ravishda o'rgangan olimlardan biri N.S. Trubetskoy bo'lib, u fonologik tizim nazariyasi doirasida unlilar garmoniyasini fonologik oppozitsiyalar bilan bog'liq holda tahlil qilgan. N.S. Trubetskoy turkiy tillardagi vokal tizimni tahlil qilar ekan, fonologik belgilarning eng faol ko'rinishi dastlabki bo'g'inda kuzatilishini alohida ta'kidlaydi. Bu esa singarmonizmning fonologik jihatdan markaziy bo'g'inga bog'liqligini ko'rsatadi [1].

Turkiy tillarda singarmonizmning tarixiy o'zgarishlari masalasida E.D. Polivanov alohida o'rin tutadi. E.D. Polivanov o'zbek tilidagi vokal uyg'unlik tizimining sustlashishini til taraqqiyotidagi tashqi lingvistik omillar bilan bog'liq holda izohlaydi [2]. Biroq bu qarash barcha tilshunoslar tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanmagan.

Jumladan, F.A. Abdullaev singarmonizm kabi yirik fonologik hodisani faqat tashqi ta'sir bilan izohlash yetarli emasligini ta'kidlab, tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlarini ham hisobga olish zarurligini asoslaydi. Uning fikricha, aynan ichki fonologik rivojlanish jarayonlari singarmonizmning zaiflashuvida muhim rol o'ynaydi [3].

Shuningdek, A.K. Borovkov "o" unlisining kelib chiqishini faqat divergensiya bilan bog'lashni yetarli deb hisoblamaydi. U o'zbek shevalari materiallari asosida singarmonizm saqlanib qolgan sharoitda ham bu unlining birinchi bo'g'inda paydo bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu sababli olim mazkur fonetik hodisani konvergensiya va pozitsion omillar bilan birgalikda izohlash zarurligini ta'kidlaydi [4]. A.M. Shcherbak turkiy tillar fonetikasi va fonologiyasiga oid tadqiqotlarida singarmonizmni artikulyatsion va akustik nuqtai nazardan izohlab, uning til tizimidagi barqarorlikni ta'minlovchi asosiy mexanizmlardan biri ekanligini ko'rsatadi. U, ayniqsa, singarmonizmning turkiy tillar tarixiy taraqqiyotidagi rolini alohida ta'kidlaydi [5].

O'zbek tilshunosligida bu masala bilan shug'ullangan olimlardan biri Sh. Rahmatullayev bo'lib, u o'zbek tilida singarmonizmning zaiflashganligini, ammo uning ayrim izlari morfonologik darajada saqlanib qolganini ilmiy asoslab bergan. Olim affikslarning variantliligi aynan tarixiy singarmonizm qonuni bilan bog'liqligini ko'rsatadi [6]. E. Begmatov o'zbek tilining fonetik tizimini tadqiq

etar ekan, unlilar reduksiyasi masalasiga ham alohida e'tibor qaratadi. U reduksiya hodisasini nutq jarayonidagi iqtisodiylik tamoyili bilan bog'lab, urg'u va fonetik muhitning bu jarayondagi rolini asoslab beradi [7].

N. Mahmudov va A. Nurmonovlar ham o'zbek tilining fonologik tizimini o'rganish jarayonida singarmonizm va reduksiya hodisalariga to'xtalib, ularning til tizimidagi funksional ahamiyatini ochib berganlar. Ular singarmonizmni tarixiy hodisa sifatida baholab, hozirgi o'zbek adabiy tilida uning faqat qoldiqlari saqlanib qolganini ta'kidlaydilar [8]. Shuningdek, V.V. Radlov turkiy tillar materiallari asosida singarmonizmning keng tarqalganligini ko'rsatib, uning turkiy tillar uchun tipologik xususiyat ekanligini ilmiy jihatdan asoslagan [9].

Unlilar reduksiyasi masalasida esa L.V. Shcherba nutq fonetikasi doirasida tovushlarning kuchsizlanishi va qisqarishi jarayonlarini tahlil qilib, reduksiyaning nutq tezligi va urg'u bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi [10]. Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, singarmonizm ko'proq tilning tarixiy va tizimli barqarorligini ifodalasa, unlilar reduksiyasi nutq jarayonida yuzaga keluvchi dinamik o'zgarish sifatida talqin qilinadi. Bu esa ushbu ikki hodisaning fonologik ziddiyat asosida o'zaro bog'liq holda rivojlanishini tasdiqlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqotda fonologik ziddiyat doirasida singarmonizm va unlilar reduksiyasi hodisalari o'zaro bog'liqlikda kompleks tarzda tahlil qilindi. Tahlillar ushbu ikki fonologik jarayonning til tizimidagi o'rni, funksional vazifasi hamda bir-biriga ta'siri mavjudligini ko'rsatdi.

Avvalo, unlilar reduksiyasi hodisasi fonetik va fonologik omillar bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlandi. Xususan, bir bo'g'inli leksemalarda hamda ikki bo'g'inli leksemalarning birinchi bo'g'inida sonor undoshlar oldida

kelgan tor unlilar reduksiyaga uchraydi (b(i)lan, b(i)roq, s(i)ra, b(i)r). Mazkur holat sonor undoshlarning ovozdorlik darajasi yuqoriligi hamda unlilar bilan akustik yaqinlik hosil qilishi natijasida yuzaga keladi. Natijada unli tovush undosh tarkibidagi ovoz hisobiga qisqaradi. Shu bilan birga, bo‘g‘in hosil qilish funksiyasidagi yaqinlik ham reduksiya jarayonini kuchaytiradi.

Ikki bo‘g‘inli leksemalarning birinchi ochiq bo‘g‘inida sirg‘aluvchi undoshlar oldidan kelgan tor unlilarning reduksiyaga uchrashi (k(i)shi, p(i)shiq, q(i)zil) majburiy variantlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Bu esa nutq uslublarida farqlanishni yuzaga chiqaradi: og‘zaki nutqda qisqargan variantlar faolroq bo‘lsa, adabiy va publitsistik uslubda to‘liq shakllar ustunlik qiladi.

Uch bo‘g‘inli va polisillabik so‘zlarda reduksiya asosan ikkinchi bo‘g‘indagi tor unlilarda kuzatiladi (o‘g‘ilim → o‘g‘lim). Bu hodisa morfemik qurshov hamda urg‘u tizimi bilan bog‘liq bo‘lib, urg‘uning oxirgi bo‘g‘inga siljishi natijasida o‘rta bo‘g‘in kuchsiz pozitsiyada qoladi. Natijada tor unlilar zaiflashadi va reduksiyaga uchraydi. Bu hol kombinator variantlarning shakllanishiga va tilning dinamik rivojlanishiga xizmat qiladi.

Fonologik tizimda singarmonizm artikulyatsion va fonetik moslashuvni tartibga soluvchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida faoliyat ko‘rsatadi. U asosan ikki turga – tanglay (palatal) va lab (labial) garmoniyasiga bo‘linadi. Tanglay garmoniyasi turkiy tillar uchun asosiy bo‘lib, unda so‘z tarkibidagi unlilar til oldi va til orqa xususiyatlariga ko‘ra moslashadi (kelamiz, ketamiz, gullar). Bu esa artikulyatsion qulaylik va fonetik yaxlitlikni ta’minlaydi. Lab garmoniyasi esa ayrim turkiy tillarda saqlangan bo‘lsa-da, o‘zbek adabiy tilida deyarli uchramaydi.

Hozirgi o‘zbek tilida singarmonizm to‘liq amal qilmaydi, balki uning ayrim qoldiqlari saqlanib qolgan. Ayniqsa, qipchoq va o‘g‘uz shevalarida tanglay

garmoniyasi nisbatan barqaror uchraydi. Bu hol singarmonizmning tarixiy hodisa ekanligini va vaqt o'tishi bilan uning zaiflashganini ko'rsatadi. Shunga qaramay, uning izlari morfonologik tizimda, xususan affikslarning variantlarida saqlanib qolgan (masalan: -ga, -ka, -qa, -g'a).

Singarmonizmning undoshlarga ta'siri assimilyatsiya orqali yuzaga chiqadi. Ya'ni affiks tarkibidagi undoshlar o'zak oxiridagi undoshlarga moslashadi (keldi – jarangli, ketti – jarangsiz). Bu jarayon fonetik uyg'unlikni kuchaytiradi va talaffuzni soddalashtiradi. Morfologik jihatdan esa singarmonizm affikslarning ko'p variantlilik xususiyatini yuzaga keltirib, tilning ichki muvozanatini saqlashga xizmat qiladi.

Tahlillar natijasida singarmonizm va unlilar reduksiyasi o'rtasida fonologik ziddiyat mavjudligi aniqlandi. Ya'ni singarmonizm tovushlar uyg'unligini saqlashga intilsa, reduksiya ayrim unlilarning qisqarishi va kuchsizlanishiga olib keladi. Bu qarama-qarshilik til tizimida muvozanatni yuzaga keltiradi: bir tomondan barqarorlik (singarmonizm), ikkinchi tomondan esa dinamik o'zgarish (reduksiya) ta'minlanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, singarmonizm va unlilar reduksiyasi tilning fonologik tizimida o'zaro ziddiyatli, ammo bir-birini to'ldiruvchi muhim hodisalar hisoblanadi. Singarmonizm til tizimining tarixiy izchilligi va fonetik uyg'unligini saqlashga xizmat qilsa, reduksiya hodisasi nutq jarayonidagi o'zgaruvchanlik va soddalashuv tendensiyalarini aks ettiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zbek tilida singarmonizmning zaiflashuvi va reduksiya hodisasining faollashuvi fonologik tizimda yangi muvozanatni shakllantirmoqda. Shuningdek, ushbu

jarayonlar fonetik, fonologik va morfologik sathlarda o'zaro bog'liq holda namoyon bo'lib, til taraqqiyotining muhim omili sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Трубецкой Н.С. Основы фонологии. – Москва: Наука, 1960
2. Поливанов Е.Д. Избранные труды по восточному и общему языкознанию. – Москва: Наука, 1968.
3. Abdullaev F.A. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 1980.
4. Borovkov A.K. O'zbek dialektologiyasi masalalari. – Toshkent: Fan, 1963.
5. Shcherbak A.M. Sravnitelnaya fonetika tyurkskix yazykov. – Leningrad: Nauka, 1970.
6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
7. Begmatov E. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1991.
8. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2010.
9. Radlov V.V. Opyt slovarya tyurkskix narechiy. – Sankt-Peterburg, 1893.
10. Shcherba L.V. Fonetika russkogo yazyka. – Moskva: Prosveshchenie, 1957.